

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10862892>

TIBBIYOT TEXNIKUMLARIDA LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANINI O'QITISH METODIKASI

Kattabekova Muqaddas Pardaboyevna

Guliston Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat

sog'ligini saqlash texnikumi o'qituvchisi

e-mail: muqaddaskattabekova@g-mail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqaloda Lotin tilining ahamiyati va uni o'rgatishdagi muhim jihatlarga ko'proq e'tibor qaratish kerakligi to'g'risida amaliy va anazariy tajribalarim bilan o'rtoqlashganman. Bu sohani rivojlantirish nimalarga e'tibor berish kerakligi to'g'risida aytib o'tganaman

Kalit so'zlar: lotin tili, metodika, o'qitish, yondashuv, munosabat

ABSTRACT

In this article, I shared my practical and theoretical experiences about the importance of the Latin language and the need to pay more attention to the important aspects of its teaching. I have already mentioned what should be paid attention to in the development of this field

Key words: Latin language, methodology, teaching, approach, attitude

KIRISH

Bugungi kunda Lotin tili va tibbiy terminologiyani o'qitish metodikasi keyingi yillarda bir qator yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Demak bu orqali jamiyatning ijtimoy-

iqtisodiy sohalarida ma'lum bir rivojlanishlar, islohotlar sodir bo'lmoqda. Zero, ingliz til muloqot vositasi sifatida barcha yo'nalishlarning taraqqiyotiga ta'sir qiladi, shuning uchun ham uni o'qitish masalasi doimo dolzarb hisoblanadi. Bugun dunyo tibbiy terminlar o'qitish metodikasiga andoza bo'layotgan bu ta'lim yutuqlaridan aksariyat mamlakatlar samarali foydalanib kelmoqda. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, xalqaro tibbiy terminlar o'qitish metodikasida malakaviy ko'nikmalarni rivojlantirish asosiy masalalardan bo'lib, uni amalga oshirish o'quv topshiriqlari sifatiga ko'proq bog'liq bo'lmoqda.

Lotin tili va tibbiy terminlar asosi – Siz uchun yangi fan. Shu tafayli avvalambor biz uni o'rganishdan qanday maqsad borligini, va qanday natija borligini umumiy ko'rinishda uning hajmi, ma'nosini va tarkibini, tibbiy fan va biologiyada bir necha yuz yilliklar mobaynida nega aynan lotin tili qo'llanilayotganini yoritib olishimiz lozim. Amalda foydalaniladigan o'quv topshiriqlari avvaldan belgilangan ma'lum mezonlar asosida shakllantiriladi. Lotin tili fanining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi o'qitish samaradorligini oshiradi. Shuning borada, rus tili bilan solishtirganda, ot so'z turkumiga oid so'zlarning lotin tilida sifatdoshlar bilan kelishish misoli mavjud. Tibbiyot o'quv yurtlarida o'qitiladigan barcha fanlar orasida lotin tili alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda tibbiyot oliygohlarida lotin tili chet tillari yoki boshqa tillar qatoriga kiritilmagan, lekin, odam anatomiyasining alohida bir qismi bo'lganligi sababli, lotin tili tibbiyot fanlarining ichida alohida o'rin egallaydi.

{1- 63-64 c

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bilim, malaka, ko'nikma, amaliyot va fan sohasining ma'lum bir terminologiyasi – bu tushunchalar tizimida ilmiy tushunchalarni va atamalarni ajratib ko'rsatish uchun qo'llaniladigan, o'zaro ma'lum bir aloqa vositasi va bog'liqlikda bo'lgan terminlar, so'zlar va so'z birikmalari tizimidir. Terminologiya doimiy harakatda: nimadir o'zgaradi, qo'shiladi, eskiradi, ta'minotdan chiqadi, yo'qotiladi. Ko'plab qadimdan ma'lum maxsus so'zlar yangi ilmiy tarkibga ega bo'ladi. Bunda talabalar lotin tilining har bir qismini yani anatomic, klinik va farmasevtik bo'limlarini orfografik jihatdan

to'g'ri yozilishi birinchi o'rinda o'rganishi kerakdir. Lotin tili leksikasida bir biriga yaqin bo'lgan qardosh yoki qardosh bo'lmagan qabilalar tillarining ta'siri saqlanib qolgan. Lotin tiliga yunon tili, ayniqsa, mil. av. III-I asrlarda kuchli va davomli ta'sir ko'rsatgan shu boisdan ushbu fanni o'qitish metodikasi bo'yicha ko'nikmalarni va amaliyotni baham ko'raman. Bugungi kunda tibbiyot oliy o'quv yurtlarida lotin tilini o'qitish tibbiyotning ajralmas qismiga aylandi, chunki bemorlarga barcha tashxis qo'yish, retseptlar strukturasi va retseptlar yozish, shubhasiz, lotin tilida olib boriladi. Shu bilan birga, lotin tili kursi tibbiy ta'limning muhim qismidir. Hozirda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida stomatologiya, ginekologiya, pediatriya, umumiy tibbiyot, farmakologiya fakultetlarida lotin tili o'rganilmoqda. Lotin tili texnikumning boshqa tillari qatori asosiy tilga aylandi, deyish mumkin. Talabalar tibbiyot yo'nalishi bo'yicha o'qishlarini muvaffaqiyatli davom ettirishlari uchun tibbiyot terminologiyasi asoslari bilan tanishadilar. Lotin tilini o'qitish usulining maqsadi va vazifasi talabalarga tushunarli, soda va eng muhimi aniq tilda boshqa fanlar bilan bog'lagan holda tushuntirishdir: masalan, rus, ingliz, fransuz va nemis tillari bilan. Lotin tilini o'qitish metodikasining asosiy maqsadi talabalarda tibbiy terminologiya bo'yicha kasbiy kompetensiyani shakllantirish, lotin tili asoslarini o'zlashtirish, bu ularga to'g'ri o'qish, yozish va tarjima qilish, shuningdek matn mohiyatini tushuntirish imkonini beradi.

NATIJALAR

Lotin terminologiyasini o'qitish jarayonida talabalarda tibbiy atamalarni tahlil etish va esda saqlashni yaxshilaydigan fanlararo o'qitish usullari amalga oshirilmoqda, lotin tilini o'qitishning ushbu yaxlit usuli umumiy ta'lim va ta'lim vazifalarini bajaradi. Ma'lumki, umumta'lim vazifalari yunon-lotin tilidagi lug'at boyligini boyitish, tibbiyot terminologiyasi bo'yicha dunyoqarashni kengaytirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va, albatta, o'quvchilarning tibbiy madaniyatini yuksaltirishdan iborat. Lotin tilini terminologiyasini o'qitishning integral metodining o'quv vazifalari talabalarni lotin tilining paydo bo'lish tarixi, uning mazmuni va mohiyati, jahon madaniyati va fanining rivojlanishidagi roli bilan tanishtirishdan iborat. {2-355 s.}

MUHOKAMA

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana yoki to'rtburchak shaklida joylashtirilib, har bir talabaga qog'oz beriladi. Har bir talaba qog'oz ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va uni yumaloq shakldagi qog'ozning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng qog'ozni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi talabaga uzatadi. Qog'oz olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Yumaloq javob varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi talabaga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi.

"Muommoli bahs" usuli – biror mavzu bo'yicha talabalar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir.

Har qanday muommoli mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar yoki amaliy bilimlar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu usul qo'llaniladi.

Muommoli munozarani boshqarib borish vazifasini talabalarning biriga topshirish yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Muommoli munozarani erkin holatda olib borish va har birtalabani munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim.

Interfaol usullarda ishlash va o'sha sharoitlarda ishlash malakalarini hosil qilish uchun treninglar tashkil etiladi. Treningda ishtirok etuvchilar ma'lum bo'lgan usullarni o'z o'quv faoliyatlarida foydalanish uchun malaka va ko'nikmalarni hosil qiladilar. Treninglardavomida mavjud bo'lgan yangi usullar muhokama qilinadi, o'rganiladi, ko'nikmalar hosil qilinadi. O'zlari shu asosida yangicha ishlash faoliyatini o'rganadilar.

Umuman treninglar qo'shimcha ta'lim olishning asosiy formalaridandir. Treningning o'ziga xosligi shundaki, mutaxassisni o'z faoliyatini, qobiliyatini oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Treningni tashkil etish va o'tkazishda shunday metodlar mavjudki ular universal xarakterga ega. Masalan, guruhiy munozaralar, o'yin

asosidagi usullar, vaziyatlarni modullashtirish, inson sezgilarini rivojlantirish texnikalari, mediativ texnikalar va boshqalardir. {4- 284-288 стр }

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, trening har bir talabani fikr mulohazalarini boyitadi va ushbu bahsli va muommoli munozalar davomida talabar bir birlarini eshitib ularning fikrlariga qo‘shimcha va qarshi fikrlarini oq qog‘ozga 5 minut vaqt ichida yozib qoldiradilar va ular bir birlarining xulosalarini o‘qib o‘zlari uchun xulosalarni chiqarib oladilar. Trenning asosiy maqsadi va zifalari talabalar o‘rtasidagi Lotin tilidagi ayrim mummolar va munozaralarini hal qilish orqali o‘zlari uchun oydinlik kiritadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Международная анатомическая терминология с грамматикой латинского языка / под общ. ред. Г.В. Петровой. Москва: Олма Медиа Групп, 2019. 63-64 с

1. Энциклопедический словарь медицинских терминов / под ред. Б.В. Петровского. Москва: Советская энциклопедия, 1982-1984. Т. I: А-Й. 1982.

2. Ahrens G. Medizinisches und naturwissenschaftliches Latein. Leipzig: VEB, 1988. 355 s.

3. Клиническая терминология (на основе греко-латинских терминологических элементов): учебно-методическое пособие для студентов лечебного, педиатрического, медико-психологического и медико-диагностического факультетов / Д.К. Кондратьев, О.С. Заборовская. - Гродно: ГрГМУ, 2008. 45-56с